

MIRZO ULUG'BEK VORISLARIMIZ

Yo'ldashev Nurbek Jo'rabek o'g'ili

Yangiariq Education Centrs

nodavlat ta'lim muassasi 11-sinf o'quvchisi.

Ilmiy rahbar: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

faxriy professori, iqtisod fanlari doktori

Abduazim Mutalov

Annotatsiya: *Temuriylar sulolasining buyuk insonlaridan biri bo'lgan Mirzo Ulug'bek o'z zamonasining eng kuchli va ilim fanda tengi yo'q nomoyondalaridan biri bo'lgan.*

Ulug'bek bolalik paytlaridayoq fan va san'at turlariga, ayniqsa, matematik va astronomiyaga katta qiziqish bildiradi. Uning aqliy dunyoqarashi kengayishida otasi va bobosi to'plagan boy kutubxona zamin bo'ldi, u yerda ko'p vaqtini o'tkazib juda ko'plab kitoblar mutola qilgan.

Kalit so'zlari: *Temuriylar, Ulug'bek, astranom, shoh, matematik, san'at, Samarqand, Registon, Yulduzlar, rasadxona.*

Абстрактный: *Мирзо Улугбек, один из великих людей династии Тимуридов, стал одним из самых могущественных и несравненных ученых своего времени.*

Улугбек с детства проявлял большой интерес к науке и искусству, особенно к математике и астрономии. Богатая библиотека, собранная его отцом и дедом, стала основой расширения его интеллектуального кругозора, в которой он проводил много времени и читал множество книг.

Ключевые слова: *Тимуриды, Улугбек, астроном, царь, математик, искусство, Самарканд, Регистан, Звезды, обсерватория.*

Abstract: *Mirzo Ulugbek, one of the great people of the Timurid dynasty, became one of the most powerful and peerless scientists of his time. Ulugbek showed a great interest in science and art, especially mathematics and astronomy, since his childhood. The rich library collected by his father and grandfather became the basis for the expansion of his intellectual outlook, where he spent a lot of time and read a lot of books.*

Keywords: *Timurids, Ulugbek, astronomer, king, mathematician, art, Samarkand, Registan, Stars, observatory.*

KIRISH

Mirzo Muhammad ibn Shohruh ibn Temur Ulug'bek Qo'rag'oniy (1394-1449) - buyuk astronom va matematik, o'z davrining atoqli allomasi, davlat arbobi, Movaraunnahrni 1441-1449 yillar boshqargan, mashhur hukmdor va sohibqiron Amir Temurning nabirasi.

Ulug'bek (Muhammad Tarag'ay) 1394 yil 22 mart kuni hozirgi Ozarbayjon hududidagi Sultoniya shahrida tavallud topgan.

1405 yil, Markaziy Osiyodan tashqari, Yaqin va O'rta Sharqning barcha hududi, O'rtayer dengizidan Shimoiy Hindistongacha bo'lgan katta yerni o'z ichiga olgan ulkan saltanatni yaratgan buyuk sohibqironning o'limidan so'ng, butun merosiy mulki uning o'g'il

va nabiralariga o'tadi. Temuriylar saltanatining tepasiga Hirot qarorgohida saylangan Temurning o'g'li - Shohruh o'tiradi.

Mavaraunnahr boshqaruvi Shohruhning to'ng'ich o'g'li, Amir Temurning nabirasi Ulug'bekka topshiriladi. 1409 yil Ulug'bek Samarqand hokimi etib e'lon qilinadi, otasi Shohruhning o'limidan so'ng, 1447 yil Temuriylar sulolasiga bosh bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Yoshligida Ulug'bek fan va san'at turlariga, ayniqsa, matematik va astronomiyaga katta qiziqish bildiradi. Uning aqliy dunyoqarashi kengayishida otasi va bobosi to'plagan boy kutubxona zamin bo'ldi, u yerda ko'p vaqtini o'tkazardi.

Ulug'bek u vaqtlar o'lchovi bilan qaraganda, juda zo'r ta'lim olgan. Ajoyib xotira egasi bo'lib, u arab va fors tilini erkin egallagan, turk she'riyatini yaxshi bilgan, adabiy uslublarni egallagan va adabiy bahslarda ishtirok etgan. O'zi ham she'rlar yozgan. Ulug'bekning ustoz taniqli olim, Temuriylar saroyidagi mashhur matematik va astronom Qozizoda Rumiy bo'lgan. U to'qqiz yasharli Ulug'bekka Marog'adagi mashhur rasadxona xarobalarini ko'rsatgan. Yoshlikdagi aynan shu xotiralari bo'lajak astronom kelajagini belgilagan bo'lishi mumkin. Ulug'bek davrida Samarqand o'rta asrlar davridagi ilm-fan o'choqlaridan biriga aylangan. Samarqandda, XV asrning birinchi yarmida Ulug'bekning atrofida G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi taniqli astronom va matematiklarni birlashtirgan butun bir ilmiy maktab vujudga keldi. U vaqtlar Samarqandda O'rta Osiyo tarixi haqida ajoyib asar yozgan tarixshunos Hofiziy Abru, taniqli shifokor Mavlono Nefis, shoirlar Sirojiddin Samarqandiy, Sakkokiy, Lutfiy, Badaxshiy va boshqalar yashagan. Ular insoniyat aqli, fanning kuchiga ishongan o'z davrining ilg'or shaxslari bo'lishgan.

1417-1420 yillar Ulug'bek Samarqandda madrasa qurdirib, Registonda barpo etilgan birinchi me'moriy ansamblga aylanadi. Ushbu madrasaga Ulug'bek islom olamining ko'plab astronom va matematiklarini taklif etadi. Qolgan ikkita madrasa G'ijduvon va Buxoroda qurilgan. Ulug'bek tomonidan qurilgan madrasalar universitet vazifasini bajargan. Ulug'bekning Buxoroda qurdirgan madrasasi peshtoqida "Ilmga intilish har bir musulmon uchun farzdir" yozuvi saqlanib qolgan.

Ammo Ulug'bekning katta ishtiyoqi - bu astronomiya bo'lgan. Ulug'bek hayotining mazmuni va Qozizoda Rumiy, Jamshid G'iyosiddin al Koshiy, Ali Qushchi kabi astronom izdosh-olimlar rasadxona qurilishiga turtki bo'lgan.

Tadqiqotchi olimlarning fikricha, rasadxona qurilishi 1428-1429 yillan yakunlangan. Rasadxona o'z davrining nodir binosi bo'lgan. Yer silkinishiga bardoshli bo'lishi uchun bino qurilishi uchun Qo'hak tepaligining toshli etagi tanlangan.

Asosiy asbob - sekstant (burchak o'lchagich) - janubdan shimol tomon meridian chiziqlari bo'ylab mo'ljalangan. Asosiy asbobdan tashqari, rasadxonada boshqa astronomik anjomlar ham bo'lgan.

Ehtimol, aniq astronomik kuzatishlarni amalga oshirishiga sekstantning o'lchami, uning qulay tuzilishi, Ulug'bekning bilimlari va uning sherigi sabab bo'lgan. Buyuk astronom Ulug'bek rahbarligi va ishtirokida rasadxonaning asosiy ishi "Zidjiy Ko'rag'oniy", "Ulug'bekning yulduzlar jadvali" tuzilgan. Kitobda ushbu Samarqand observatoriyasidan 1018 ta yulduz joylashuvi aql bovar qilmas aniqlikda, Gipparxdan so'ng ilk bor belgilangan.

Astronomik turkum yaratilishi jahon astronomiya fani xazinasiga qo‘shilgan ulkan hissa hisoblanadi.

Ilmiy merosi

Ulug‘bek davrida Samarqand ilm-fan o‘choqlardan biriga aylangan. U yerda 15-asrning birinchi yarmida Ulug‘bekning atrofida G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi kabi taniqli astronom va matematiklarni birlashtirgan katta ilmiy maktab vujudga keladi. U vaqtlar Samarqandda O‘rta Osiyo haqida ajoyib asar yozgan tarixshunos Hofiziy Abru, taniqli shifokor Mavlon Nefis, shoirlar Sirojiddin Samarqandiy, Sakkokiy, Lutfiy, Badaxshiylar va boshqalar yashagan. Ular o‘z davrining eng ilg‘or fikrli va ilmli kishilari bo‘lgan

Ulug‘bek ilmiy merosining eng asosiysi, ma‘lum va mashhuri uning “Zij”i bo‘lib, bu asar “Ziji Ulug‘bek”, “Ziji jadidi Guragoniy” deb ham ataladi. “Zij”dan tashqari uning qalamiga mansub matematik asari “Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola”, astronomiyaga oid “Risolayi Ulug‘bek” (yagona nusxasi Hindistonda, Aligarh universiteti kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir “Tarixi arba’ ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) asaridir.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, Ulug‘bek tibbiyot va musiqaga ham qiziqqan. Jumladan, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida uning she‘rlaridan namunalar keltirib o‘tgan.

Mirzo Ulug‘bekning vafotidan so‘ng Samarqandchi olimlari asta-sekin Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari bo‘ylab tarqalib ketadi. Olimlar o‘zlari borgan yerlarda Samarqand olimlarining yutuqlari va “Zij”ning nusxalarini ham yetkazadilar. Xususan, Ali Qushchi 1473-yil Istanbulga borib, rasadxona quradi. Shunday qilib Ulug‘bekning ushbu yirik asari Turkiyada tarqaladi va u orqali Yevropa mamlakatlariga yetib boradi. Masalan, 1638-yili Istanbulga ingliz olimi va sharqshunosi, Oksford universitetining professori Jon Grivs (1602—1652) keladi. Qaytishida u o‘zi bilan Ulug‘bek “Zij”ining bir nusxasini Angliyaga olib ketadi. 1648-yili avval “Zij”dagi 98 yudduzning jadvalini chop etadi. O‘sha yilning o‘zida Grivs “Zij”dagi geografik jadvalni ham nashr etadi. 1650-yili esa u “Zij”ning birinchi maqolasining lotincha tarjimasini nashr etadi. Grivs 1652-yili mazkur oxirgi ikki ishni qayta nashr etadi.

MUHOKAMA.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda “Zij” asarining yuzga yaqin forsiy nusxasi va 15 dan ortiq arab tilida nusxasi mavjud. U musulmon mamlakatlarining deyarli barchasida o‘rganilgan.

Shunday bo‘lishiga qaramay, “Zij” asari umuman olganda to‘liq ravishda o‘rganilmagan va biror zamonaviy tilga to‘liq tarjima qilinmagan. 1994-yili Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600-yilligi munosabati bilan asar ilk bor rus tilidagi to‘liq tarjimasini nashr etiladi. Shu yili Ulug‘bekning yana bir asari “To‘rt ulus tarixi” ham Toshkentda o‘zbek tilida nashr etiladi.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lozmalar fondida Mirzo Ulug‘bekning samarqandlik xattot Azizullo tomonidan nasx xatida taxminan 1439-yilda, Ulug‘bek 45 yoshda bo‘lganida ko‘chirilgan “Ziji Ko‘ragoniy”si saqlanmoqda. Qo‘lozma sahifalarida Ulug‘bekning tuzatishlari ham bor. Ushbu tuzatishlar uning dastxati, yozuvi haqida ma‘lumot beradi.

1417-1420 yillar Ulug‘bek Samarqandda madrasa qurdirib, Registonda barpo etilgan birinchi me‘moriy ansamblga aylanadi. Ushbu madrasaga Ulug‘bek islom olamining

ko'plab astronom va matematiklarini taklif etadi. Qolgan ikki madrasa G'ijduvon va Buxoroda qurilgan. Ulug'bek tomonidan qurilgan madrasalar universitet vazifasini bajargan. Ulug'bekning Buxoroda qurdirgan madrasasi peshtoqida "Ilmga intilish har bir musulmon uchun farzdir" yozuvi saqlanib qolgan.

XULOSA

Ulug'bek rasadxonasi - Samarqand shahrining eng diqqatga sazovor obidalaridan biri, 15-asr me'morchiligining nodir namunasi.

1428-1429 yillarda Ulug'bek farmoyishi bilan Cho'ponota tepaligida ulkan silindr shaklida bunyod etilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida yozilishicha, balandligi 30, 4 metrdan iborat 3 qavatli bino qurilgan. Unda o'ndan ortiq turli astronomik qurilmalar va asboblari bo'lgan. Boburning yozishicha, rasadxonaning sirti koshin va sirli parchinlar bilan bezatilgan. Uning ichiga o'rnatilgan juda katta asbob yordamida Quyosh, Oy, sayyora va yulduzlar katta aniqlikda o'rganilgan. Shuningdek, ma'lumotlarga ko'ra rasadxonada kutubxona bo'lgan. Mirzo Ulug'bekning eng yirik astronomik asari "Ziji Ko'ragoniy" rasadxonada yaratilgan. Uning qurilishi va keyingi ilmiy faoliyati Ulug'bek taklifi bilan yig'ilgan qator mashhur olimlar G'iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi va boshqalar nomi bilan bog'liq.

Ulug'bek faqatgina olim astronom bo'lib qolmasdan u ko'plab sohalarda o'z mahorati ko'rsata olgan. Mamlakati va xalqi uchun ko'plab amallar qilgan. Ulug'bek shoh bo'lishiga qaramasdan talabarga ham ustoz sifatida ilm ulashgan.

HARBIY STRATEGIYALARDAN MOHIRONA FOYDALANGAN

Mirzo Ulug'bek 1425-yili o'zining Mo'g'ulistonga qilgan birinchi yirik harbiy yurishi chog'ida qo'shin miqdori haqida dushman noto'g'ri tasavvurga ega bo'lishi uchun har bir jangchisiga tunda besh yerda gulxan yoqishni amir qilgan. Ulug'bek qo'llagan bu usul harbiy san'atda arg'ay o't (mo'g'ulcha arg'a – aldash, turkcha – o't, olov) deb nomlanadi. U dushmanni chalg'itish maqsadida qo'shin miqdorini bo'rttirib, ko'paytirib ko'rsatish uchun ishlatiladi. Yurish Ulug'bek g'alabasi bilan tugagan.

BOBOSI SOHIBQIRON SAG'ANASIGA NEFRIT QABRTOSH QO'YDIRGAN

Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasiga Temuriylar sulolasiga mansub kishilar dafn etilgan. Ziyoratxona yuqorisi (to'ri)da Temurning piri Mir Sayyid Baraka, uning qabri oyoq tomoniga Amir Temur dafn qilingan. Temur sag'anasiga qo'yilgan ko'k nefrit qabrtoshini Ulug'bek Mo'g'ulistonga qilgan yurishi vaqtida olib kelgan. Toshdagi lavhada Temurni ulug'laydigan so'zlar, uning shajarasi hamda marsiyalar o'ymakori yozuvlarda bitilgan. Keyinchalik Ulug'bekning o'zi ham shu yerga dafn etilgan.

BIBIXONIM JOME' MASJIDIGA ULKAN LAVH O'RNATTIRGAN

Amir Temurning katta xotini Bibixonim o'zi farzand ko'rmagan bo'lsa-da, Sohibqiron o'z nabiralari qatori Ulug'bekni ham bevosita zukko Bibixonim tarbiyasiga topshirgan edi. Samarqandda Amir Temur Bibixonimga atab qurdirgan Bibixonim jome' masjidini mavjud.

Masjid hovlisi o'rtasida marmartoshdan yasalgan ulkan lavh – Qur'on o'qiladigan maxsus kursi bo'lib, u dastlab asosiy bino ichida turgan (1875-yilda katta gumbazning qulashidan xavflanib, hovli o'rtasiga chiqarib qo'yilgan).

Lavh Ulug‘bek farmoniga binoan XV asr o‘rtalarida yasalgan. Unga “Sultoni azim, oliy himmatli xoqon, din-diyonat homiysi, Xanafiya mazhabining posboni, aslzoda sulton, ibni sulton, amiri mo‘minin Ulug‘bek Ko‘ragon”, deb bitilgan.

SULTON BO‘LSA-DA, TALABALARGA DARS BERGAN

Ulug‘bek Samarqandda ikkita madrasa: biri Registon ansambli tarkibida va ikkinchisi Go‘ri Amir ansambli tarkibida barpo etgan. Boshqa yirik olimlar qatorida Ulug‘bekning o‘zi ham bu madrasalarning har birida haftada bir marotaba ma’ruza o‘qigan.

Boshqa vaqtini ko‘proq astronomik kuzatishlarga, “Zij” ustida ishlashga va davlat ishlariga bag‘ishlagan. Yaqin yillargacha u faqat astronom va matematik deb hisoblanardi. Lekin XX asr oxirida uning ijodi serqirra o‘lib, u tarix, she‘riyat va musiqa bobida ham qalam tebratgani aniqlandi. Ulug‘bek she‘rlar ham yozgan.

ULUG‘BEKNING ULKAN GLOBUSI VA 50 METRLI QUYOSH SOATI BO‘LGAN

XV asrda Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek qurdirgan rasadxonada kattagina globus bo‘lgan. Unda iqlimlarning chegaralari, tog‘lar, cho‘llar, dengizlar va daryolar ko‘rsatilgan. Binobarin, dunyodagi ikkinchi globusni Samarqand astronomlari yasashgan. Ulug‘bekning o‘limidan keyin u mutaassiblar tomonidan yo‘qotilgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Ulug‘bek Samarqandda balandligi 50 metrli quyosh soati yasagan. Ushbu noyob soat ham saqlanib qolmagan..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2020/04/13/1234567890-1396794>
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat -yengimas kuch.-T.: "Ma'naviyat", 2008.
3. Ahmedov Bo'riboy. O'zbekiston tarixi manbalari. T.: "O'qituvchi". 1991.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
5. Ahmedov Bo'riboy .Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. T.: "O'qituvchi" 1996.
6. Sadriddin Salim Buxoriy. Tabarruk ziyoratgohlar. T.: "Yozuvchi" 1993
7. <https://arboblar.uz/uz/people/mirzo-ulugbek>
8. <https://www.turkestantravel.com/en/mirza-ulugbek/>
- 9.